

Trening mashg'ulotlar aql va idrok charxi

22-yanvar kuni 3-TTJda talaba qizlar ishtirokida institut psixologi M. Muxamedova "Mening hayotdagi shiorim" mavzuida trening mashg'ulotini o'tkazdi. Treningda SXTEB, KXM, YeRB fakulteti qizlari va TTJ kutubxonachilari D. Sobirova, M. Nazarova, TTJ tarbiyachi pedagogi A. Hayitova, YeRB fakulteti dekani Sh. Narbaev, YeRB fakulteti Xotin-qizlar kengashi a'zosi O. Ro'ziqulovalar faol ishtirok etishdi. Trening har doimgidek "Tanishuv" mashg'uloti bilan boshlandi. Bu gal tanishuv ko'ptok yordamida amalga oshirildi. Har bir ishtirokchi o'z ismi va xarakter xususiyatini aytib, tanishmoqchi bo'lgan trening ishtirokchisiga ko'ptokni otadi. Bu trening bir - birlarini tanimagan ishtirokchilar o'rtasidagi begonalik, tortinchoqlik hislarini yo'qotib, iliq munosabatlar shakllanishiga yordam beradi. "Mening hayotdagi shiorim" treningida ishtirokchilarga hayotda doimo olg'a intilishga, kuch va g'ayrat topa olishga, kelajakka ishonchini kuchaytirishga har vaqt yordam bera oladigan hayotiy motivatsion (ilhomlantiruvchi) shior o'ylab topish va o'sha shiorni ishtirokchi doimo ko'rinib turadigan joyga yozib qo'ya oladigan va uni ko'rganda beixtiyor hayotga nisbatan motivatsiya(qiziqish va intilish) paydo bo'lishi kerakligi topshirig'i berildi. Gohida talabalarda destruktiv printsiplar hayotiy shiorga aylanib qolishi kuzatiladi. Treningning vazifasi talabalardagi shunday destruktiv, shaxs shakllanishiga salbiy ta'sir qiluvchi omillarni aniqlab, uni bartaraf qilishdan iborat. Bu mashg'ulot orqali talabalarning dunyoqarashi va tafakkur tarzini ham o'ziga xos ravishda diagnostika va korrektsiya qilish imkoni yuzaga keladi.



"Quyosh" trening mashg'uloti orqali ishtirokchilarda o'zlariga bo'lgan ishonchni va o'z qadr-qimmatlarini oshirish maqsad qilingan. Har bir ishtirokchiga quyoshli smaylikchalar tarqatildi. Ishtirokchilar quyosh nurlariga o'z xarakterlaridagi ijobiy xususiyatlarini yozish ko'rsatmasi berildi. Treningda barcha ishtirokchilar faol qatnashishdi. Ayniqsa SXTEB fakulteti 2-kurs talabasi Abdumalikova Muxlisa, SXTEB 1-kurs talabasi Utemuratova Asem, SXTEB 1-kurs talabasi Murtozaeva Olima, YeRB 1-kurs talabasi Faxriddinova Tursunoy, KXM 1-kurs talabasi Kengeshova Sevara va KXM fakulteti 1-kurs talabasi Eshqulova Durdonalar o'zlarining yorqin ishtiroklari bilan barchaga o'rnak bo'lishdi. Trening so'ngida o'tilgan mashg'ulotlar yuzasidan mini so'rovnoma olindi. So'rovnoma natijasidan ma'lum bo'lishicha o'tilgan trening mashg'ulotimiz barcha ishtirokchilarga manzur bo'lganligi aniqlandi va keyingi trening mashg'ulotiga talabalarning faolligini yanada oshirish maqsadida SXTEB fakulteti 2-kurs talabasi Abdumalikova Muxlisa trenerlik qilishi taklifi bilan o'z yakuniga yetdi.

TIQXMMI matbuot xizmati